

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**
M A ‘ L U M O T

Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 1-martdagи 64-sonli buyrug‘i bilan vazirlikning markaziy apparati tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan, unda alohida **2 ta** shtat birligida **bevosita vazirga buysunuvchi** Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tashkil etilgan.

Ushbu ichki nazorat tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (**argos.uz**) portalı orqali ochiq tanlov asosida mutaxassis xodimlar ishga olingan.

Ichki nazorat tuzilmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi agentligi tomonidan berilgan namunaviy hujjatlar asosida Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan **15 dan ortiq** ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Qabul qilingan ichki idoraviy xujjatlar asosida vazirlikning barcha vazifa va funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholash o‘tkazilgan hamda **korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** yaratilgan.

Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida vazirlikning **Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi** ishlab chiqilgan.

Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida yil davomida **7 ta** targ‘ibot tadbirlari (*yig‘ilish - 2 ta, o‘quv-seminar - 4 ta, davra suhbati - 1 ta*) o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyati hamda moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish va korruption risklarni kamaytirishga qaratilgan amaliy seminarlar o‘tkazib kelinmoqda.

Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq barcha nomzodlar to‘liq o‘rganib borilgan.

Shuningdek, ishga qabul qilishda, lavozimi o‘zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya to‘ldirilib, vazirlikning Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi va Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o‘z vaqtida tahlil qilinib kelingan. O‘rganishlar davomida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Vazirlik rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari va telegramm kanali orqali korrupsiyani oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan barcha tadbirlar muntazam ravishda keng yoritilib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar jarayonida vazirlik va uning tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalar xodimlari o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib kelishmoqda.

Ushbu harakatlarni ham qamrov darajasini yanada kengaytirish, ta'sir choralarini oshirish bo'yicha OAV orqali vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash e'lon qilindi. □ Korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan qayta aloqa qilish imkoniyati uchun yangi **aloqa kanallari** faoliyati yo'lga qo'yildi. Yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi hamda murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shu bilan bir qatorda, vazirlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida umumiy va maxsus o'qitishlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, «**CERT International**» Xalqaro trening kompaniyasi bilan birqalikda vazirlik markaziy apparatidagi bo'linmalardan jami **49 nafar** xodimlar ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment" tizimi bo'yicha o'qitildi va maxsus sertifikatlarga ega bo'lishdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida vazirlik markaziy apparati va hududiy sho'balardan jami **70 nafar** xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitildi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlarni malakasini oshirish Markazi bilan kelishgan holda tizimdagi rahbar xodimlar tinglovchi sifatida o'qishga qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan "Korrupsiya va komplaens nazorat" yo'nalishida o'quv dasturlari bosqichma bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Ishlab chiqilgan reja va dasturlar asosida vazirlik va uning tizimida **87 nafar** rahbar xodimlari ushbu o'quv kurslarida o'zlarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, joriy yilda vazirlik markaziy apparatiga **ISO 9001:2015** "Sifat menejmenti tizimi" hamda **ISO 37001:2016** "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" bo'yicha xalqaro standartlar joriy qilindi. "SERT International" kompaniyasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazirlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar ijobjiy baholanib, xalqaro sertifikatlar topshirildi.

Hozirgi kunda sertifikatlash auditni natijasida auditorlar tomonidan berilgan tavsiyalar asosida ishchi guruh a'zolari ishtirokida joriy qilingan tizim doimiy faoliyatini ta'minlash va yaxshilash borasida belgilangan tartibda tegishli ishlar davom ettirilmoqda.